



Munosabat

MANZILGA ANIQ YO‘LLOVCHI MAYOQ

JOY KO‘RSATKICHLARIGA DOIR QAT’IY TALABLAR KATTA QULAYLIK YARATADI

Boshlanishi 1-betda

“Ta’qdir hazili yoxud qushdek yengil bo‘ling” filmi nim tabassum bilan tomosha qilamiz. Unda bosh qahramon sarxush holatda samolyotga chiqib, boshqa shaharda xuddi o‘zining manziliga o‘xshash uyni kalitlari bilan ochib kirishi va hayoti o‘zgarib ketishi tasvirlanadi. Voqealarning real holatda sodir bo‘lishiga ishonqiramaymiz.

Ammo bugungi hayotimizda birgina tumanda ikkita bir xil yoki o‘xshash joy nomlari mavjudligi yuqoridagi ko‘ngilsizliklar bilan birga ko‘pgina dahmazalar, tushunmovchiliklarga ham sabab bo‘layotgani bor gap. Masalan, soliq idoralari qarzdorlikni umuman boshqa odamga yuborishi, pochta, yetkazib berish xizmatida chalkashliklar bo‘lishi uchrab turadi. Maktab, bog‘chaga farzandini joylashtirish uchun onlayn navbatga yozilmoqchi bo‘lgan ayrim yurtdoshlarimiz manzili hujjatlar va elektron tizimda ikki xil qayd etilgani sababli qo‘shimcha ovoragarchiliklarga duch kelganini aytmay qo‘ya qolay.

Ushbu muammolarning barchasi mamlakatimizda geografik obyektlarni nomlash tizimida ma’lumotlarni elektronlashtirish va barcha davlat idoralari bilan tizimli ishlashni tashkil qilish jarayonida bartaraf qilish choralari ko‘rilishi bilan o‘z yechimini topmoqda.

2025-yil 30-iyul kuni Vazirlar Mahkamasining “Geografik obyektlarga doir ayrim munosabatlarni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu hujjat yuqoridagi muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

— Hujjat bilan “Davlat tili haqida”gi va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunlarga muvofiq, geografik obyektlarni tizimlashtirish hamda ko‘cha nomi va ko‘chmas mulk obyekti raqami ko‘rsatkichlarini o‘rnatish faoliyati tartibga solindi, — deydi Kadastr agentligi

olinib, aholi uchun sifatli va tezkor xizmat ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi.

Mavze, daha va mittituman — ularning qanday farqi bor?

Yirik shaharlarning bir qismi hisoblangan, aslida, bir turdagi geografik obyektlar mavze, daha, mittituman ko‘rinishida tasniflangan. Aslida, mavze, daha, mittitumanning bir-biridan farqli jihati yo‘q. Faqatgina daha qadimiyroq



nomlanish bo‘lsa, mittituman o‘tgan asrda muomalaga kiritilgan. Yangi hujjatga ko‘ra, endi bu geografik obyektlar umumlashtirilib, mavze deb yuritiladigan bo‘ldi.

Shuningdek, davlat idoralarining axborot tizimida geografik obyektlarning yagona klassifikatori yo‘qligi sababli tizimlarda bitta obyektlar kodi turlicha bayon etilgan va bu tizimlar orqali o‘zaro axborot almashinuvida tushunmovchiliklarni keltirib chiqarayotgan edi.



“

**2025-YIL 30-iyul kuni VAZIRLAR
MAHKAMASINING “GEOGRAFIK
OBYEKTLAGA DOIR AYRIM
MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISH
CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”GI
QARORI QABUL QILINDI.**

Davlat kadastrlari palatasi bo‘lim boshlig‘i Dilnoza Kamolova. — Shu vaqtgacha joy nomlari va ko‘chmas mulk obyekti raqami ko‘rsatkichlarini o‘rnatish tartibi tizimli emas edi. Shuningdek, ko‘cha nomi va uy raqamlari ko‘rsatkichlarini o‘rnatishga mas’ul davlat idoralari va ularni qaysi mablag‘ hisobiga amalga oshirilishi me’yoriy hujjatlarda aniq belgilanmagandi. Bundan tashqari, ko‘rsatkichlarning yozilishi, shakli bo‘yicha belgilangan me’yorlar mavjud emasdi. Shu bois, ko‘rsatkichlar turli ko‘rinishda, davlat tili me’yorlariga amal qilmasdan, ayrim joylarda imloviy xatoliklar bilan o‘rnatib kelingan. Markazdan olis tumanlarda davlat reyestrda ro‘yxatdan o‘tgan ko‘cha nomlari tegishli tartibda ko‘rsatkichlarda aks ettirilmagani yoki o‘zboshimchalik bilan davlat reyestrda mavjud bo‘lmagan norasmiy ko‘cha nomlaridan foydalanib kelingan holati talaygina edi.

Qaror bilan ushbu tizimdagi muammoli masalalar o‘z yechimini topadi. Mavjud kamchiliklar bartaraf qilinib, yangi qamlayotgan obyektlar, mavze va ko‘chalarni nomlash, ko‘rsatkichlarni o‘rnatishning qat’iy tartibi amaliyotga tatbiq etiladi. Albatta, bu turizm, yetkazib berish va pochta xizmati kabi o‘nlab sohalardagi kamchiliklarni tuzatishda qo‘l keladi. Natijada ortiqcha ovoragarchiliklarning oldi

— Mazkur qarorda O‘zbekistonda mavjud geografik obyektlarning klassifikatori ham tasdiqlandi, — deydi Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasi yetakchi mutaxassisi Dilyorbek Qodirov. — U “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunga asosan geografik obyektlarni tizimlashtirish, jumladan, ularning kodi, turi, qisqartmasi va klassifikatsiya kodini belgilashni nazarda tutadi. Misol uchun, geografik obyektlarga ma’muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari va ularning qismlari (mahalla, ko‘cha, bog‘, xiyobon), transport va muhandislik obyektlari (temir yo‘l stansiyalari, metropoliten, vokzal, aeroport) va tabiiy obyektlar (daryo, ko‘l, muzlik, tog‘, cho‘l) kiradi.

Klassifikatorga 77 turdagi geografik obyektlar kiritilgan, endilikda respublikamiz hududidagi barcha mavjud geografik obyektlar ushbu turlar asosida davlat reyestrda ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Ilgari 200 dan ortiq shunday tur bor edi va ular optimallashtirildi. Masalan, avtoshohbekat, avtovokzal kabi bir-birini takrorlovchi turlarning eng maqbul varianti tanlab olindi. Ushbu jarayonlarning barchasi geograf, filolog, toponimist olimlar bilan hamkorlikda amalga oshirildi.

Endilikda Kadastr agentligi hamda manfaatdor vazirlar va idoralar tomonidan o‘zining idoraviy tizimlarida geografik

obyektlarning kodlarini klassifikatorga muvofiqlashtirish ishlari bajariladi. Natijada Ichki ishlar vazirligining manzilga qo‘yish, Soliq qo‘mitasining Soliq.uz, Kadastr agentligining Geonames.kadastr.uz, Uzkad, Yer nazorat kabi axborot tizimlari hamda boshqa davlat organlari axborot tizimlarida yagona klassifikatordan foydalaniladi.

Ko‘cha nomlari va ko‘chmas mulk obyekti raqami ko‘rsatkichi hamda uchun qulay va ko‘rinarli joylarga o‘rnatiladi

Ko‘cha-ko‘yda manzil so‘rasangiz, biror binoni mo‘ljal qilib, “Shundan o‘ngga burilasiz, keyin manab u to‘yxona qarshisidan chappa”, deya tushuntiradi odamlar. Agar ko‘chalar nomi, uylar raqami bilan borar manzilni tushuntirmoqchi bo‘lishsa ham mo‘ljal ayishlarini so‘raymiz. Sababi ko‘cha nomi yozilgan ko‘rsatkichlarni topish muammo, uy raqamlari esa biri tog‘dan, biri bog‘dan kelganga o‘xshaydi. Yoki ayrim ko‘chalarning ko‘rsatkichlari o‘rnatilmagan, borlari esa yozning jaziramas, qishning yog‘ingarchiliklari natijasida yozuvini o‘qib o‘lmaydigan darajaga kelib qolgan bo‘ladi. Qarorda bu holatlarning oldini olish, ko‘rsatkich o‘rnatishning texnik reglamentlari batafsil keltirilgan.

— Qaror asosida qabul qilingan nizomda ko‘cha nomi va uy raqamlari ko‘rsatkichlarini tayyorlashda foydalaniladigan materiallar, shrift o‘lchamlari, rang kombinatsiyalari va fon talablari aniq belgilangan, — deydi

YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORLARI

O‘Z KASBI VA FAOLIYATIDAN G‘URURLANADI

**Sherzod HIDOYATOV,
Qurilish va uy-joy kommunal
xo‘jaligi vaziri**

Yaqin yillarga qadar yozda chang, qishda loyga botadigan ko‘chalarga asfalt yotqizildi. Abgor holga kelib qolgani tufayli har ikki kunning birida o‘chadigan elektr tarmoqlari yangilandi. Ichimlik suv va gaz ta’minoti yaxшилandi. Odamlarning farovon va to‘kis yashashi uchun nimaiki zarur bo‘lsa, barchasi muhayyo qilinmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar asosidagi qurilish industriyasi shakllandi. Bunyodkorlik milliy iqtisodiyotimizning muhim drayverlaridan biriga aylandi.

So‘nggi sakkiz yilda qurilish ishlari hajmi bir necha barobar oshdi. Bu ko‘rsatkich 2016-yilda 30 trillion so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda qariyb 234 trillion so‘mga yetdi. Joriy yilda qurilish ishlari hajmini 254 trillion so‘mga yetkazish reja qilingan.

2017-yilda qurilish korxonalarida boryo‘g‘i 11 mingtagina maxsus texnika mavjud edi. Hozir qurilish tashkilotlarimizdagi maxsus texnika vositalari soni 44 mingtadan ortdi. Bu bunyodkorlarimizning qisqa vaqt ichida qanday ulkan natijalarga erishganining yana bir isboti.

Xalqimizning o‘zib borayotgan talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, 2024-yili 100 mingdan ziyod xonadonga ega bo‘lgan 2044 ta ko‘p qavatli uy barpo etildi. Bugungi kunda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan uy-joy hajmi 2020-yildagi 16 kvadrat metrdan 19 kvadrat metrga yetdi. 56 ta hududdagi “Yangi O‘zbekiston” massivlarida esa qurilish jadal davom etmoqda. Umuman, joriy yilda xalqimiz ixtiyoriga 135 mingta xonadon topshiriladi. 2030-yilgacha “Yangi O‘zbekiston” massivlari sonini 100 taga yetkazish maqsad qilingan.

2024-yili yurtimizda 21,4 million kvadrat metr turar joy va 19,1 million kvadrat metr noturar obyekt, jami 40,5 million kvadrat metr bino-inshoot qurildi. 2025-yilda ushbu raqam 45 million kvadrat metrdan oshadi.

Qurilishni rag‘batlantirish uchun 2024-yilda 17 trillion so‘m ipoteka krediti ajratildi, quruvchi va developerlarga aylanma mablag‘ uchun jami 3 trillion so‘m berildi. 2024-yilda qurilgan 100 ming xonadon hisobiga pudratchilar, boshqaruv va servis, qurilish materiallari, transport kabi sohalarda 350 ming odam ishli bo‘ldi. Joriy yilda 400 ming kishini shu sohada ish bilan ta’minlash maqsad qilingan.

Yangi uylar, madaniy va ijtimoiy inshootlar, yo‘l va infratuzilma barpo etilishi xalqimizning farovon hayotiga xizmat qilmoqda.

Uy-joy qurilishida ulushdor sifatida ishtirok etuvchi fuqarolarimiz huquqlarini himoya qilish maqsadida eskuru tizimi joriy etildi. Bu orqali ishonchli developerlar bozori shakllanmoqda.

Poytaxtni rivojlantirish va aholi turmush farovonligini yuksaltirish maqsadida yirik loyiha tashabbusi ilgari surildi. Ya’ni “Yangi Toshkent” loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Bugungi kunda mazkur loyiha doirasida 20 ming gektar maydonda 2 million aholi uchun qulay infratuzilma yaratish ishlari rivojlangan davlatlar kompaniyalari bilan hamkorlikda amalga oshirilmogda.

Ayni paytda loyihaning birinchi bosqichi



6 ming gektar maydonda 600 ming aholiga mo‘ljallangan qurilish ishlari jadal sur‘atlarda davom etmoqda.

Ayni vaqtda Yangi Toshkent shahri qurilishining birinchi bosqichida O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Yangi O‘zbekiston universiteti, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, muzeyi va ixtisoslashtirilgan maktab va maqom markazi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, davlat xizmatchilari uchun turar joy majmualari kabi yirik bino va inshootlar qad rostlamogda.

Albatta, uy-joylar bilan bir qatorda ijtimoiy soha obyektlari ham barpo etilmoqda. Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim sohasi obyektlarini zamon talablari asosida qurish uchun Infratuzilmani rivojlantirish injiniring



kompaniyasi tashkil etildi. 2025-yilda mazkur kompaniya buyurtmachiligida 567 ta ta’lim obyektida qurilish-ta’minlash ishlari amalga oshirish reja qilingan.

Boshqa sohalar qatori qurilish tarmog‘ida ham davr talabi asosida raqamlashtirish jarayoni jadal rivojlanmogda va bu islar

izchil davom ettiriladi. Sohada 30 dan ortiq axborot tizimi joriy qilindi. “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimida 22 ta davlat xizmati raqamlashtirilgani natijasida ortiqcha qog‘ozbozlik va ovoragarchiliklarga chek qo‘yilmogda. Tender platformasi joriy etilishi tufayli inson omilining aralashuviga barham berilib, shaffoflik va ochiq raqobat muhiti shakllantirildi.

Mamlakatimiz qurilish sohasining huquqiy, moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Respublikamizning barcha hududlarida ilg‘or texnologiya va yondashuvlar asosida faoliyat yuritadigan yangidan yangi qurilish tashkilotlari paydo bo‘ldi. Bugunga kelib ularning soni 30 mingtaga yetdi va qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi 12 mingta korxona faoliyat yuritib boshladi. 2023-yilda tashkil etilgan Kompetensiyani rivojlantirish instituti orqali sohaning 11 ming vakili malaka oshirdi.

Bugun shaharsozlik sohasida yangi davr boshlandi, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Endilikda bosh rejarlar ishlab chiqilganidan so‘ng geoaxborot tizimiga joylashtirish uchun raqamlashtirilmogda. Xususan, 2024-yilda 146 ta shaharsozlik hujjati raqamlashtirildi. 2025-yilda ushbu ko‘rsatkichni 180 taga yetkazish rejalashtirilgan.

Sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali qurilish jarayonlarining barcha bosqichlarida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, sifat va samaradorlikni oshirish maqsadida ilg‘or xorijiy tajribani o‘rgangan holda qurilishni nazorat qilish mexanizmi qayta ko‘rib chiqildi.

Endi nazorat inspeksiyasi o‘z faoliyatini to‘liq raqamlashtirgan holda olib boradi. Obyektlarda ishlarning borishini texnik, mualliflik va davlat nazorati tomonidan kunlik tekshirib borish mexanizmi hamda real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratildi. Natijada sifat talabi yanada kuchaytirildi va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar o‘z vaqtida bartaraf etilmogda.

Qurilishda narxlarini shakllantirish va obyektlar smeta qiymatini aniqlash ham elektron tizimga o‘tkazilmogda. Buning uchun Qurilish resurslari milliy klassifikatori yaratildi. Ushbu platformaga 200 mingta qurilish materiali va ish turi kiritildi.

O‘zbekiston bunyodkorlari va soha xodimlari vatanimiz mustaqilligining 34-yilligiga munosib sovg‘alar hozirlamoqda. Mamlakatimizdagi yangilanishlarda, obodlik va zamonaviy qiyofa kasb etayotgan manzillarda soha xodimlarining hisssasi beqiyos. Zero, yurtimiz ravnaqiga ulush qo‘shayotgan har bir quruvchi o‘z kasbi va faoliyatidan faxr va iftixor tuyg‘usini tuyadi.



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**



Mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, aholi bandligini ta'minlashning muhim omillaridan biri ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirishdir. Shu ma'noda, Navoiy viloyatida yangi korxonalar ko'payib, investitsiya jozibadorligi ortmoqda. Buni hududda keyingi sakkiz yilda 8 milliard dollarlik 7 mingdan ziyod loyiha amalga oshirilib, 73 mingta ish o'rni yaratilgani, tadbirkorlar soni 10 mingtadan 30 mingtaga ko'paygani misolida ham ko'rishimiz mumkin, albatta.

Prezidentimiz shu yil 7-avgust kuni Navoiy viloyatida islohotlar natijadorligi va yangi rejalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda ayni jihatlariga to'xtalib, viloyatda mavjud imkoniyatlarni ishga solish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ustuvor vazifalarini belgilab berdi. Qayd etilganidek, viloyatda yirik sanoat tarmoqlaridan tashqari yaylovlarini o'zlashtirish, chorvachilikni rivojlantirish, xizmat turlarini ko'paytirish bo'yicha imkoniyatlar katta. Masalan, viloyatdagi 3 million gektar yaylovni o'laylik. Qiziltepalik tadbirkor ming gektar yaylovda yomg'irlatib va tomchilatib sug'orish texnologiyasini qo'llab, eksportbop ekinlar yetishtirmoqda. Endi

qurilish, mashinasozlik, transport, mebel va interyer, elektronika, quyosh panellari, sanoat konstruksiyalari uchun alyuminiy profil mahsulotlari ishlab chiqariladi hamda 30 dan ziyod davlatga eksport qilinadi.

— Dastlabki mahsulotlarni 2018-yilda ishlab chiqarganmiz, — deydi korxona menejeri Lola Gribova. — Yildan yilga faoliyatimizni xorijiy tajriba asosida kengaytirib bordik va

qarorida hududlarda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun sanoat maydonlarini tashkil qilish nazarda tutilgan. Qolaversa, tadbirkorlarning to'liq, uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish, investorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash belgilangan.

ta'minoti yo'lga qo'yildi, ichki yo'llar qurib berildi. Yaratilgan imkoniyatlar o'zini oqlamoqda. Sanoat zonalaridagi tadbirkorlar faoliyatini yildan yilga kengaytirmoqda. Eksportbop va import o'rmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lamini kengaymoqda. Aholining bandlik darajasi oshmoqda.

Yaqinda Turkiya texnologiyasi asosida "Yashil don" un ishlab chiqarish korxonasi ishga

Ana shunday istiqbolli investitsiya loyihalaridan yana biri "Ishonch gilam" korxonasi. U Navoiy erkin iqtisodiy zonasidagi imtiyozlardan unumli foydalanib, yil sayin ishlab chiqarish sur'atini oshiryapti. Shu orqali viloyatning iqtisodiy-jitmoiy rivoji, eksport salohiyati o'sishiga hissa qo'shmoqda. Muhimi, korxonada 500 nafarga yaqin kishi doimiy daromadli ish bilan band. Xalqaro muvofiqlik sertifikatlariga ega gilamlar xorijda ham xaridorgir.

— Bir yilda 2 million dollarlik mahsulot eksport qilamiz, — deydi korxona direktori Sherzod Nasrullayev. — Faoliyat boshlagan paytimiz ishlab chiqarish xomashyosining 90 foizini xorijdan sotib olardik. Ayni vaqtda xomashyoning 95 foizini mahalliylashtirdik. Bu, albatta, mahsulot tannarxini arzonlashtirdi. Shuningdek, zamon talabiga ko'ra, gilamlar turini ko'paytirib, sifatini oshirib boryapmiz.

Darhaqiqat, mahalliyashtirish dasturi asosida shu kungacha import qilinayotgan ip mahsuloti bugun korxonaning o'zida tayyorlanmoqda. Qolaversa, chiqindi gazlarni qayta ishlash orqali olinayotgan xomashyo tufayli atrof-muhit himoyasiga hissa qo'shilmogda. Zamon bilan hamnafas rivojlanayotgan korxonada malakali dizaynerlar jamoasi faoliyat yuritadi. Jamoa 3000 ga yaqin gilam dizaynini ishlab chiqqan.

2025-yilda Navoiy viloyatida 2 milliard dollar investitsiya jalb qilish hamda mahalliy tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish reja qilingan. Natijada 140 mingta ish o'rni

Prezidentimizning 2018-yil 5-iyundagi "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini kengaytirish va Navoiy viloyatida kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham viloyatda investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Masalan, shu hujjat asosida 7 million dollarlik loyihani taqdim etgan xitoylik investorlar 20 million dollarlik investitsiya kiritdi. Natijada Navoiy shahridagi erkin iqtisodiy zonada eng yirik granit toshlarini qazib olish va qayta ishlashga mo'ljallangan "Tyncheng Stone" korxonasi ishga tushirildi. Ushbu korxona ilk mahsulotini 2021-yilda sotuvga chiqargan edi. Hozir korxona mahsulotining 80 foizi eksport qilinmoqda. Qolgan 20 foizi mahalliy bozorga yetkazib beriladi.

— Korxonamiz 2021-yildan beri ichki va tashqi bozorga granit mahsulotlarini sotib keladi. Shu vaqtga qadar 50 million dollarlik mahsulot eksport qildik, — deydi korxona menejeri Yu Shin. — O'tgan yili 17 million dollarlik, 2025-yilning yarim yilligida esa 11 million dollarlik granit mahsulotlarini Rossiya, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston kabi davlatlardagi xaridorlarga yetkazib berdik. Ichki bozorga esa 40 milliard so'mlik mahsulot sotilgan. Hozir korxonamizda mingga yaqin ishchi ishlaydi. Ikki davlat o'rtasidagi diplomatik aloqalar yil sayin mustahkamlanib borayotgani biz, tadbirkorlar uchun qulay biznes muhiti yaratilishida muhim omil bo'lmoqda. Hech ikkilanmay, qayta va qayta sarmoya kiritib, faoliyatimizni kengaytirib boryapmiz. Bu esa O'zbekiston sanoati rivoji, mahsulotlarning eksport hajmi oshishi va aholi bandligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganidan mamnunmiz.

"Tyncheng Stone" korxonasining ikkinchi filiali 2023-yil avgustda ish boshladi. Natijada ishlab chiqarish, eksport hajmi ko'paydi. Korxona filiali 2024-yilda mahsulotining 90 foizini eksport qilgan edi. Hozir mahsulot to'raligicha xorij bozoriga chiqarilaypti. E'tiborlisi, ishlab chiqarish hajmi ham ko'paygan. O'tgan yili kunlik ishlab chiqarish quvvati 3500 kvadrat metr edi. Hozir bu ko'rsatkich ikki barobar oshgan. Ushbu filialda 200 dan ortiq odam ish bilan band.

Talab darajasidagi granit toshlarini ishlab chiqarish faqat korxonadagi kesish, qayta ishlash jarayonidagina iborat emas. Tog' bag'ridagi karyerdan toshni qazib olish, olis masofadagi korxonaga yetkazishdek murakkab jarayon ham bor. Xatirchi tumanidagi 24 gektarli karyerda 20 ga yaqin texnika hamda tosh kesish uchun 10 ta yirik hajmli maxsus uskuna ishlatmoqda. U yerda 70 kishi ish bilan ta'minlangan. Kondan granit toshlari qazib olinib, kerakli hajmda kesiladi va Navoiy shahriga yetkazib beriladi.

Hozir korxona tomonidan 35 gektarda 30 million dollarlik investitsiya mablag'i asosida Xitoy sanoat texnoparkini qurish ishlari boshlangan. Bu yerdagi ishlar to'liq yakuniga yetgach, bir nechta ishlab chiqarish korxonasi ishga tushirilishi evaziga sanoat hajmi kengayib, 5000 ta ish o'rni ochiladi.

Yaqinda Xatirchi tumanida umumiy qiymati 10 million dollarlik "YOUKANG FEED" korxonasi ishga tushirildi. Ushbu loyiha qurilishiga Prezidentimizning 2024-yilda viloyatga tashrifi doirasida start berilgan edi. Bugun loyiha to'liq ishga tushirilgan bo'lib, yiliga 21 ming tonna baliq yemi ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bu esa hududda baliqchilikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

— Joriy yilning birinchi choragida viloyatimizda 269,5 million dollarlik xorijiy investitsiya o'zlashtirilishi belgilangan. Ushbu reja 110 foiz bajarildi, — deydi Navoiy viloyati investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasining investorlar bilan ishlash shu'ba boshlig'i Jonibek Norbo'tayev. — Sohalor bo'yicha tahlil qilsak, asosiy investitsiya kimyo va qurilish materiallari sanoatiga to'g'ri kelmoqda.

Xalqaro hamkorlik mamlakatning har tomonlama taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Avvalo, jahon standartlariga mos texnologiya kirib keladi. Bu orqali dunyo bozoriga keng yo'l ochiladi. Tovar ishlab chiqarish hajmi oshishi rivojlangan davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

Bugun yangi O'zbekistonda investitsiya muhiti jozibadorligini ta'minlash uchun yaratilayotgan infratuzilma va imtiyozlar ana shunday samara bermoqda. Bularning barchasi esa ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizga ijobiy ta'sir qilib, inson qadriini ulug'lashga xizmat qilmoqda.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

DUNYO BOZORINI ZABT ETISH YO'LIDA

NAVOIY VILOYATIDAGI INVESTITSIYA LOYIHALARI QANDAY SAMARA BERMOQDA?

chorvachilikni yo'lga qo'yib, sutni qayta ishlash tashabbusini bildirgan.

Bu kabi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun Navoiy viloyatida ham "Islohotlar shtabi" tuzilgan. Yig'ilishda tadbirkorlarning takliflari asosida ishlab chiqilgan yangi loyihalar taqdimot qilindi.

Jumladan, G'ozg'on shahri, Nurota, Xatirchi, Navbahor va Uchquduq tumanlaridagi 8 ta konga investorlar 566 million dollar sarmoya kiritishga tayyorligini bildirgan. Natijada sanoat hajmi 2,5 trillion so'mga, eksport 100 million dollarga ko'payadi.

Shu o'rinda ta'kidlash o'rinli, viloyatda investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish va eksportni yo'lga qo'yishda erkin iqtisodiy zonalar faoliyati juda muhim. Yurtimizda ilk bor tashkil etilgan Navoiy erkin iqtisodiy zonasi 644,1 gektarda joylashgan. Undagi 83 ta korxonada 7,5 mingga yaqin kishi daromadli ish bilan band. Shuningdek, hozir bu yerda qiymati 2 milliard 585 million dollarlik 94 ta loyiha ishga tushirilgan. Bundan tashqari, 200 gektarga yaqin yerda tashkil etilgan Navoiy kichik sanoat zonasida ham ayni vaqtda istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda.

2019-yilda butun viloyat hududi erkin iqtisodiy zona sifatida e'tirof etildi. Tabiiyki, hududlarda soliq va bojxona tizimidagi imkoniyatlardan foydalanib, faoliyatini kengaytirishni maqsad qilgan rezidentlar soni ham ko'paydi. Bu o'z-o'zidan ishlab chiqarishda sifat va samaradorlikka ham xizmat qilaypti. Eksportbop hamda import o'rmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lamini tobora kengayib bormoqda. Dunyo bozorida "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" brendi ostidagi tovarlar xilma-xilligi oshmoqda. Qolaversa, mahalliy tadbirkorlar orasida ham sog'lom raqobat kuchaydi.

Viloyatda 2017-yildan "Bencam" alyuminiy profil ishlab chiqarish korxonasi faoliyat yuritib boshladi. Korxona o'tgan yillarda ish ko'lamini kengaytirish evaziga qo'shimcha ish o'rnlari yaratmoqda. Hozir 100 ming kvadrat metrdan ortiq maydonni egallagan korxonada 1342 ishchi-xodim mehnat qiladi. Yevropa va Janubiy Koreya texnologiyalari asosida

eksport geografiyasini ham kengaydi. Hozir qator davlatlarga mahsulotimizni eksport qilishga erishdik. Tovarlarimiz 10 ta xalqaro standart bo'yicha sertifikat olgan. Joriy yilda olti oylik tayyorgarlikdan so'ng AQSH standartlari bo'yicha sertifikat olishga erishdik. Bu — juda katta yutuq. Chunki Markaziy Osiyoda bunday sertifikatni qo'lga kiritgan yagona korxona bo'ldik.

Albatta, bugun shaharsozlik me'yorlari, arxitekturaning jahon andozalariga mos, o'zgacha dizaynini yaratishda alyuminiy profil mahsulotiga talab oshmoqda. Jumladan, tadbirkorlik obyektlari va dam olish maskanlarini barpo etish, yengil konstruksiyali bino-inshohat qurishda alyuminiy profilidan keng foydalanilmoqda. Qolaversa, mebellarni qo'shimcha jihozlar bilan bezash, mashinasozlik va boshqa sohalarda ham ushbu mahsulotga ehtiyoj mavjud. Bu katta bozor bor degani. Ya'ni mahsulotlar yilda ikki marta xalqaro hamkorlar tomonidan audit nazoratidan o'tkazilib, xalqaro muvofiqlik sifat sertifikatlariga ega bo'lishi, dunyo bozoriga chiqishi uchun yanada keng yo'l ochadi.

Ishdagi unum va samaradorlik ishchi-xodimlarga yaratilgan munosib mehnat va dam olish sharoiti bilan ham bog'liq. Nafaqat mahsulot ishlab chiqarish, balki jamoaning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi ham jiddiy e'tiborda. Qolaversa, ishchilar ishga kelib-ketish, dam olish, ovqatlanish uchun yaratilgan sharoitdan mamnun.

Prezidentimizning 2022-yil 6-iyundagi "Hududlarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish va ularni muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi

Shu asosda Navoiy erkin iqtisodiy zonasi hududida dastlab 28 ta kichik va yoshlar sanoati hamda tadbirkorlik zonasi tashkil etildi. Buning uchun qariyb 200 gektar yer ajratildi. Uning 57,5 gektari infratuzilma obyektlari va 132 gektardan ko'proq qismi tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish uchun taqsimlandi. Prezident qaroriga asosan, sanoat zonalarida tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida 107 milliard so'mlik tashqi muhandislik tarmoqlari tortildi. Ya'ni elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va oqova suv

tushirildi. Natijada 50 ga yaqin ish o'rni ochildi. Korxona bir kunda 150 tonna donni qayta ishlash, 130 tonna unni bozorga yo'naltiradi. Hozir korxona mahsuloti yurtimizning barcha hududida sotilyapti. Kelgusida eksportga chiqarish ham reja qilingan. Albatta, tadbirkorga berilgan imkoniyat faoliyatini kengaytirishda qo'l keladi. Bu bilan u ishlab chiqarishni rivojlantirib, aholi farovonligiga hissa qo'shadi. Qolaversa, bozorda sog'lom raqobat shakllanib, mahsulot sifati oshadi, narx-navo barqaror bo'ladi.



“

Viloyatda investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish va eksportni yo'lga qo'yishda erkin iqtisodiy zonalar faoliyati juda muhim. Yurtimizda ilk bor tashkil etilgan Navoiy erkin iqtisodiy zonasi 644,1 gektarda joylashgan. Undagi 83 ta korxonada 7,5 mingga yaqin kishi daromadli ish bilan band.

O'quv mashg'uloti



Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanida parvozlarning qidiruv-qutqaruv faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha idoralararo keng ko'lami o'quv mashg'ulotlari bo'lib o'tdi. Mudofaa vazirligining desantchilarni tayyorlash markazida o'tkazilgan mashg'ulotda shartli aviafalokat oqibatlari bartaraf etildi.

O'quv mashg'uloti rejasiga muvofiq, yo'lovchi samolyoti qo'nishga yaqinlashganda havo dispetcheri va ekipaj

o'rtasidagi aloqa uzilib qoladi. Samolyot Toshkent shahriga yetmay aviafalokatga uchraydi. Natijada yong'in chiqadi, qurbonlar

va jarohatlanganlar bor. Dispetcherlar favqulodda vaziyat haqidagi ma'lumotlarni zudlik bilan aeroportning avariya-qutqaruv xizmatiga uzatadi. Ular esa, o'z navbatida, boshqa xizmatlarga xabar beradi. Qutqaruv amaliyoti boshlanadi.

Simulyatsion favqulodda holat oqibatlarini bartaraf etish uchun 250 ga yaqin mutaxassis va idoralararo tuzilmalarning 20 ta maxsus texnikasi jalb qilindi. Favqulodda vaziyatlar, Mudofaa, Sog'liqni saqlash, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya hamda "Uzbekistan Airports" AJ hamkorligida tashkil etilgan mashg'ulotlar doirasida qutqaruvchilar o'z guruhlarining tayyorgarligi, yong'inni o'chirish jarayonida muvofiqashtirish, odamlarni evakuatsiya qilish, jabrlanganlarni jarohatining og'ir-yengilligiga qarab taqsimlash, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va jarohatlanganlarni



tibbiyot muassasalariga yetkazish, shuningdek, samolyot bortidagi xavfli yukni evakuatsiya qilish bo'yicha ishladi.

"Uzbekistan Airports" AJ aeroport hududidagi mashg'ulotlardan tashqari yiliga bir necha bor aeroportlar tashqarisida ham bunday kompleks o'quv tadbirlarini o'tkazadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad — aviafalokat sodir bo'lgan taqdirda qator vazirlik va idoralar, Toshkent aeroportining bo'linmalari o'rtasida o'zaro hamkorlikda harakatlanishni ta'minlash, aviafalokat oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish hamda xodimlarning favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligini oshirishdan iborat.

O'quv mashg'uloti jarayonida mashqlarning barcha bosqichi batafsil o'rganildi va tahlil qilindi. Natijasi bo'yicha bo'lim va idoralar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadbir yakunida "Toshkent" aeroporti hamda tegishli idoralarning kuch va vositalari tayyorgarligi yuqori baholanib, favqulodda holat sodir bo'lgan taqdirda tezkor choralar ko'rishga to'liq tayyor ekani e'tirof etildi.

"Uzbekistan Airports" AJ
matbuot xizmati



MAKTABGACHA TA'LIM TARAQQIYOTI

Uzoq yillar bolalar bog'chasida tarbiyachi bo'lib ishlagan onaxon bunday degandi: "Bir ayol 3 yoshli o'g'lini har kun oyoq tirab, dod solib yig'lashiga qaramay, bog'chaga tashlab ketaverdi. Bola bir oy deganda ko'ndi, yig'lamay, o'z istagi bilan keladigan bo'ldi. Boshqa bir ayol esa erka bolasining ko'ngliga qarab, uyda maktab yoshiga yetkazdi. Har ikkisinin farzandi birinchi sinfga bordi. Bolaning maktab muhitiga, jamoaga o'rganib, harf tanib ketishi juda qiyin kechgan. O'qituvchi ham rosa qiynalgan. O'sha paytlarda ko'plab bolalarda shunday holat kuzatilardi".



Munajat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Ha, yaqin-yaqingacha ham bog'cha ko'rmay maktabga boradigan bolalar soni kishini xavotirga solardi. Yuzlab mahallada bolalar bog'chasi yo'qligidan minglab bola bog'cha nimaligini bilmay o'sdi. Borlarining ham binosi eskirgan, poli o'pirilgan, guruhlar yo'qligi tufayli bo'shab yotardi. Bugun esa ota-onalar bog'chaga borgan va bormagan bolaning rivojlanishida sezilarli farq borligini tushunib yetdi. Endi majburiylikdan emas, bolaning kelajagi uchun bog'chaga murojaat qilinayapti. Rost-da, qanchalik shohona sharoit yaratmang, qanchalik parvona bo'lmang, uyingizda bog'chadagi muhitni yaratolmaysiz. Maktabgacha ta'lim tashkiloti esa inson kamolotining ilk bosqichi, dastlabki jamoaviy ko'nikmalar, bilimlar shakllanadigan maskan. Shu ma'noda, yangi O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lidagi ishlar qamrovni oshirishdan boshlandi. Mubolag'a



emaski, bugun maktabgacha ta'lim — islohotlar samarasi sezilayotgan, tub burilishga yuz tutgan sohalardan biri.

Tizim tarixida bo'lmagan amaliyotlar

Oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, qariyb 40 million nufusli mamlakatimiz aholisining 3,2 millioni 3-7 yoshli bolalardir. Ularning maktabgacha ta'limga qamrab olinganlik ko'rsatkichi esa 78 foizga yaqinlashdi. 7-8 yil avval bu ko'rsatkich 30 foizga ham yetmaganiga ba'zilar ishonmasligi tabiiy. Biroq amaliy natijalar qisqa muddatda shunday sur'atda siljish mumkinligini ko'rsatdi.

2017-yilda Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilgach, qanday bo'lmasin, ta'limning eng quyi bo'shiga qamrovni oshirishga jadal kirishildi. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT)ning o'zi bilan bunga erishib bo'lmadi, albatta. Shu bois, tizimda xususiy sektorga keng yo'l ochildi. Oilaviy, xususiy, davlat-xususiy sherikligi (DXSH) asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yildi. DXSHning birinchilardan bo'lib shu tizimda tashkil etilishi davlat hamda nodavlat tashkilotlar o'rtasida sog'lom raqobatga ham imkon berdi. Subsidiyalari, imtiyozli kreditlar ajratila boshlagach, ko'plab tadbirkorlarda MTT tashkil etishga qiziqish uyg'ondi. Viloyatlarda ham poytaxtdagidan qolishmaydigan, eng zamonaviy bog'chalar ko'paydi. Bu borada Prezidentimizning 2021-yil 10-iyundagi "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini

ENG QUYI VA NOZIK BO'G'INNI MUSTAHKAM POYDEVORGA AYLANTIRADI

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori dasturulamal bo'ldi. 2017-yilda bog'chalar soni 5200 tani tashkil etgan bo'lsa, bugun ular soni 38 mingga yetkazildi.

Shuningdek, maktabgacha ta'limga qamrab olishda yangi yondashuvlar, muqobil shakllar, tizim tarixida bo'lmagan amaliyotlar qo'llandi. Xususan, MTT qurish imkonini bo'lmagan hududlarga qayta jihozlangan "ISUZU" avtobuslari negizida "Aqlvoy" mobil maktabgacha ta'lim tashkilotlari kirib bordi. 2021-yil yanvarida faoliyat yuritib boshlagan "Aqlvoy" guruhlar dastlab 16 ta avtobusda tashkil etilib, barcha hududga taqsimlandi. Mobil guruhlar tarbiyalanuvchilari uchun kerakli o'yin jihozlari va didaktik materiallar bilan ta'minlangan 44 ta o'yin maydonchasi qurildi. Bugunga kelib mamlakatimizning 216 ta chekka mahallasida 102 ta "Aqlvoy" avtobusi negizida 9500 o'rinni 400 dan ziyod mobil guruh ishlayapti. Birgina Surxondaryo viloyatining o'zida 11 ta "Aqlvoy" mobil avtobusi xizmat qilyapti. Viloyatdagi 46 ta mobil guruhga Bandixon, Denov, Oltinsoy, Qumqo'rg'on va Uzun tumanlarining chekka hududiga istiqomat qiluvchi 700 dan ziyod bolajon jalb etildi. Yangi turdagi bu bog'chalar har kuni 3 navbatda 48 bolani qamrab oladi. Quyosh bataryasidan quvvatlanadigan avtobuslarda barcha sharoit yaratilgan. Bunday imkoniyat avval bo'lmagani, hech kimning xayoliga kelmaganini o'ta-onalarning o'zi ham e'tirof etyapti.

Kambag'al oilalar reyestrda ro'yxatda turadigan, "Temir daftar", "Yoshlar daftar" dagi oilalar farzandlari bog'chaga imtiyozli qabul qilinayotgani ham qamrov o'rinishida muhim omil bo'lyapti. Oilalarga yanada yengillik yaratish uchun endi ularning farzandini qabul qilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarining ta'minoti uchun ota-onalar to'lovining bir qismi (40 foizi)ni davlat budjetidan qoplab berish (kompensatsiya ajratish) tartibi joriy qilinayapti.

Qamrov past bo'lishiga bog'chaga qabul qilishdagi sun'iy to'siqlar ham ta'sir ko'rsatib keldi. Ko'plab ota-onalar bolasini bog'chaga joylash muammosidan bezigani, korrupsiya holatlariga duch kelgani rost. Yaqin-yaqingacha bolalarni davlat bog'chalariga joylash uchun vaqti va naqdini sarflab ham sarson bo'lib yurgan ota-onalarni ko'plab uchratardik.

“MTT tashkil etishga qiziqish uyg'ondi. Viloyatlarda ham poytaxtdagidan qolishmaydigan, eng zamonaviy bog'chalar ko'paydi. Bu borada Prezidentimizning 2021-yil 10-iyundagi "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori dasturulamal bo'ldi. 2017-yilda bog'chalar soni 5200 tani tashkil etgan bo'lsa, bugun ular soni 38 mingga yetkazildi.



qo'yilishi natijasida 20 mingdan ortiq ishsiz ayolning bandligi ta'minlandi.

2030-yilga borib maktabgacha ta'limga bolalarning 80,8 foizini qamrab olish rejalashtirilganini inobatga olsak, marraga yaqinmiz. Biroq davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilgan maktabgacha ta'lim bo'yicha ko'zlangan manziling qaysi nuqtasidamiz? Sonning ortishi sifatga ta'sir ko'rsatmayaptimi?

Yangilangan dasturlar, zamonaviy yondashuvlar

Davlatimiz rahbari shu yil 15-may kuni maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bolalar bog'chalari nafaqat tarbiya, balki ta'lim olish uchun ilk ko'nikmalarni shakllantiradigan maskanga

“Maktabgacha ta'limga qamrab olishda yangi yondashuvlar, muqobil shakllar, tizim tarixida bo'lmagan amaliyotlar qo'llandi. Xususan, MTT qurish imkonini bo'lmagan hududlarga qayta jihozlangan "ISUZU" avtobuslari negizida "Aqlvoy" mobil maktabgacha ta'lim tashkilotlari kirib bordi. 2021-yil yanvarida faoliyat yuritib boshlagan "Aqlvoy" guruhlar dastlab 16 ta avtobusda tashkil etilib, barcha hududga taqsimlandi.

aylanishi zarurligini ta'kidladi. Yurtimizda oliy yoshli bolalarning 96 foizi maktabga tayyorlov guruhlariga qamrab olingani, keyingi yili bu raqam 100 foizga chiqishi aytiladi. Buning ahamiyati shundaki, majburiy bepul tayyorlov guruhlarini bevosita maktabgacha va boshlang'ich ta'limning uzviylikiga xizmat qilyapti. Shuning uchun ham endi ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabga tayyorlov guruhlar va boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlari uyg'unlashtiriladi. Bolalarni matematika, tabiiy fanlar va texnologiya yo'nalishida tanqidiy va kreativ fikrlashga o'rgatadigan dasturlar ishlab chiqilishidan ko'zlangan maqsad ham maktabga tayyorgarlik sifatini sezilarli darajada yaxshilashdir.

Shu kungacha MTTlarda ta'lim dasturlari yangilangan, o'quv-tarbiya jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqilayotgan edi. STEAM, interaktiv metodlar va erkin o'yinlarga asoslangan yondashuvlar joriy etildi. Kelgusi 4 yilda Kosonsoy va Toyloq tumanlari tajribasi asosida barcha tuman (shahar) da bosqichma-bosqich har yili o'rtacha 50 tadan "Ilk rivojlanish markazlari" faoliyati yo'lga qo'yiladi. Ushbu markazlarga maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan, kam ta'minlangan, alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan oilalar farzandlari 2 ta model asosida qabul qilinadi.

("bolaakadem.uz") raqamli platformasi qayta ko'rib chiqilib, maktabgacha ta'lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, maktabgacha ta'limning yangi shakl va usullari, innovatsion axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar joylashtirildi. Amaldagi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi UNESCOning XXI asr namunaviy ta'lim dasturlari asosida xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda qayta ko'rib chiqildi. Fransiyaning innovatsion platformasi yordamida Toshkent shahridagi 12 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotidagi 5-6 yoshli 997 bolaga fransuz tili bepul o'rgatilyapti.



Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, uning tizimidagi agentlik hamda markazlar, hududiy va tuman (shahar) bo'linmalari xodimlarining ko'p yillik xizmati uchun rag'batlantirish tizimi joriy etiladi. Agar MTT direktorlari boshqaruvchanlik, menejerlik qobiliyatini rivojlantirish uchun tashkil etilgan kurslarda o'qib sertifikat olsa, shu yili sentyabrda maoshiga qo'shimcha 30 foiz ustama oladi. Bu izlanuvchan, tashabbuskor, ijodkor rahbarlar 7-8 million so'm maosh olishi mumkin degani. "Yilning eng yaxshi tarbiyachisi" tanlovida 1-, 2-o'rinni egallagan tarbiyachilar o'zi yashaydigan hududidagi oliygozlarga maktabgacha ta'lim yo'nalishi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, uning tizimidagi agentlik hamda markazlar, hududiy va tuman (shahar) bo'linmalari xodimlarining ko'p yillik xizmati uchun rag'batlantirish tizimi joriy etiladi. Agar MTT direktorlari boshqaruvchanlik, menejerlik qobiliyatini rivojlantirish uchun tashkil etilgan kurslarda o'qib sertifikat olsa, shu yili sentyabrda maoshiga qo'shimcha 30 foiz ustama oladi. Bu izlanuvchan, tashabbuskor, ijodkor rahbarlar 7-8 million so'm maosh olishi mumkin degani. "Yilning eng yaxshi tarbiyachisi" tanlovida 1-, 2-o'rinni egallagan tarbiyachilar o'zi yashaydigan hududidagi oliygozlarga maktabgacha ta'lim yo'nalishi

bo'yicha grant asosida qabul qilinadi. Bu ularla kasbga muhabbatni oshirishi barobarida, bolalarni sevis xislatini ham kuchaytirsa, ajab emas.

Umuman olganda, insonni qadrlashga qaratilgan siyosat bugun maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari hayotiga ham kirib borishi uchun harakat qilinayapti. Bunga javoban esa soha xodimlaridan ham ishonchni oqlash talab etiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda kuzatilayotgani kabi salbiy holatlarga sababchi bo'lmalik uchun ham endi chinakamiga ishlash kerak.

— Ayrim bog'chalarda kuzatilayotgan bunday vaziyatlar butun maktabgacha ta'lim tizimiga soya solishini istamaymiz. Vazirlik bu kabi ko'ngilsizliklarni to'la bartaraf etish va oldini olishga qaratilgan yangi chora-tadbirlarni muntazam amalga oshiradi. Mutaxassislar, psixologlar bilan jarayon o'rganilib, xodimlar o'rtasida psixologik so'rovnomalar o'tkazilyapti. Toshkent shahridagi dastlabki so'rov natijalari pedagoglarning stressga chidamligi pastligini ko'rsatdi. Aksariyat pedagoglarda o'zini o'zi boshqarish qobiliyati yo'q. Bunday vaziyatlarda mutaxassislar psixologlar bilan hamkorlikda pedagoglarga psixologik seminar-treninglar o'tiyapti, — deydi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining muvofiqlashtirish departamenti bo'lim boshlig'i Gulbahor Parpiyeva.

Ha, bugun hamma sohaga, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimiga professional, fidoyi kadrlar kerak. Zero, poydevor mustahkam qurilmasa, oqibat barchaga ma'lum. Shu ma'noda, bog'cha tarbiyachilarini tayyorlaydigan oliygozlarga bilan doimiy hamkorlik o'rnatilgan, muntazam malaka oshirish kurslari o'tkazilyapti, xorijiy mutaxassislar jalb etilyapti. Prezidentimizning 2024-yil 30-avgustdagi farmoniga binoan uzoq va chekka hududlardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari uchun auditoriya ko'rinishidagi 4 ta avtobus negizida mobil malaka oshirish xizmatlari tashkil etilishi ham ta'limning eng quyi bo'g'ini, asosiy hالقasi bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimining ertasiga xizmat qiladi.

Bugun maktabgacha ta'lim tizimi ham jadal raqamlashtirilyapti. O'zingiz o'ylang, birgina MTTga qabul jarayoni raqamlashgani xalqqa qanchalar qulaylik berdi. Endi esa "Bolalar bog'chasi" axborot tizimida Toshkent shahridagi barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida biometrik identifikatsiya qilish texnologiyasini qo'llagan holda xodimlar va tarbiyalanuvchilarning elektron davomatini yuritish, ish vaqti tabelini shakllantirish, tarbiyalanuvchilarning oziq-ovqat xarajatini natura shaklida hisoblash, oylik badal hamda boshqa to'lovlar avtomatlashtirilgan tarzda hisoblanayapti. Tizim oldida yil yakuniga qabul qilinadigan talaygina ishlar turibdi. Chunonchi joriy yilda 1000 ta oilaviy nodavlat MTT tashkil qilish, bunda kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan mahallalar tanlanib, 37 ming bolani qamrab olish maqsad qilingan. 337 ta bepul majburiy tayyorlov guruhiga jalb etish orqali qamrov ko'rsatkichi 8816 ga yuqorilaydi. 182 ta davlat MTTning yangidan qurilishi, ta'mirlablari rekonstruksiya qilinishi bilan 24 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratiladi. Avtobuslar orqali yana 2500 ga yaqin bola bog'cha ta'limini oladi. Xullas, vazifalar ko'p, ish qizg'in.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligidan chiqar ekanman, umrining 30 yili tarbiyachilikdagi o'lgan Siddiqi aya Yoqubova bilan bekatga qadim hamsuhbat bo'lib qoldik. Aya anglashilmovchilik sabab nabirasining navbati cho'zilayotganini tushunib yetganini aytdi. Suhbat chog'i uning quyidagi qiyoslarini maqolaga xulosa qilishni o'ylab qo'ygandim: "Bugun bolalar bog'chalarida ishlayotganlarga hamma sharoit yetarli. Biz qanchalar bolalarni sevmaylik, fidoyi bo'lmaylik, bog'cha tarbiyachisiga bugungidek e'tibor, bunaqangi imtiyozlar, rag'batlar bo'lmagan. Maoshimiz juda kam edi. Shunday bo'lsa-da, tani bilan oddiy oq qo'zdan, somondan, taxtachalardan ko'rgazmali qurollar tayyorlab kelardik. Motlarning qirgimidan o'yinchoqlar tikardik. Hazir esa hammasi muhayyo, xodimlar biz kabi qiynalmaydi. Qani endi, yoshligim qaytib kelsayu, endigina ishga kirgan bog'cha opa bo'lib qolsam!"

6

2025-yil 9-avgust, 162-son

www.yuz.uz

f yuz.uznews

yuz_official

Albatta o‘qing!

Tirik xazina yoxud jahongashta so‘z (“So‘z latofati” kitobidan)

Bahsga chorlov

Har ulfatning o‘z hangomasi bor, deganlaridek, shoir, yozuvchilar yig‘ilib qolsa, bahs-munozara ko‘pincha So‘z ustida ketadi. Negaki bizni binokor desa g‘ishtimiz, dehqon desa dalamiz, g‘avvos desa ummonimiz, uchuvchi desa osmonimiz – So‘z.

Dunyoda qancha ijodkor bo‘lsa, shuncha tafakkur tarzi, shakllangan ko‘zqarash bor. Ayniqsa, So‘zdek rangin, murakkab, serqirra mavzu ustida gap ketganda fikrlarning bir joydan chiqishi qiyin. Har kimda bir nuqtayi nazar va har nuqtayi nazarda bir haqiqat bo‘ladi.

Yaqinda shunday bahslardan biri mahkama so‘zi haqida bo‘ldi. Bir tomon mahkama hukm chiqariladigan joy, ya‘ni sud, eski zamonda qozixonada shunday atalgan desa, ikkinchi tomon hukm so‘zidan hukumat kelib chiqqani, hukumat idorasi mahkama bo‘lishini dalillab e‘tiroz bildirdi. Birinchi tomonning mahkamaga berish, mahkamaga tortish kabi dalillariga qarshi har ishning o‘z mahkamasi bor degan ibora qarshi qo‘yilib, bu so‘zning idora ma‘nosiga urg‘u berildi. Bu fikr ko‘pchilikka maqbul bo‘ldi.

O‘sha subhatda men asming muhokama asri ekani, bahsu muhokamaning esa buyuk hikmat ekanini o‘ylab yayrab o‘tirdim. Asliyatga qaytishning ko‘lamli jarayonida zangin va rangin ona tilimiz faol ishtirok etayotganidan quvondim. Barcha darajadagi mahkamalarning faqat hukm chiqaruvchi dargoh emas, balki muhokama dargohiga, tafakkur va mashvart maskaniga aylanayotgani haqiqat. Zero, hakim-u hukm-u hakam-u hukumat muhokamaga o‘zakdosh, hikmat daraxti ham shu ildizdan unib chiqqan.

Ijodkorlar bahsi odatda qizg‘in, qiziqarli kechadi. Turli hangomalar o‘rtaga tushadi.

So‘zni telba-teskari ishlatganlarning mazammati, tarjimadagi ba‘zi ajabovurliklar hangomasi bahsga yengil ruh beradi. Talashib tortishsak ham kulib, yayrab qaytamiz. Lekin tilshunos olimlar bilan tortishuv juda mushkul ish. Arab, fors tillarini suv qilib ichib yuborgan tadqiqotchilar so‘zning eng chuqur ildiziga yetib asliyatni mahkam tutib oladilar. Dunyo xatoga to‘lib ketganidan jonfig‘on bo‘ladilar. Rishton emas, Roshidon; Buvayda emas, Bibi Ubayda; arava emas, aroba deb yozish va aytishni talab qiladilar. Ulamolalar, fuzalolar deiysh savodsizlik, inson huquqlari emas, haqlari deyish kerak, chunki ulamo, fuzalo, huquq olim, fozil, haq so‘zlarining ko‘pliigi deb qizishadi. Ayniqsa, axborotlar so‘zini eshitsalar bormi, sochlari tik bo‘ladi. Haqiqatan xabarning jam‘i — axbor. Axborotga aylanib yana bir ko‘plik qo‘shimchasi ortdi. Axborotlar desak endi xabar uchta lardan lorsillagan bo‘ladi.

Azaliy qadriyatlar tiklanayotgan zamonda tilshunos olimlarimizning bu jonbozliklari, ayniqsa, ziyolilarni “qora” xalqqa ergashish emas, balki yo‘lboshchi bo‘lishga chorlashlari adolatli nidodir.

Lekin orzular boshqa-yu, hayot boshqa ekan. Men ham ona tilimizning Hazrat Navoiy zamonidagi ko‘rki, bo‘y-bastiga qarab, havas qilaman. Qani edi, buyuk shoirming so‘z boyligi shu kunda ham to‘lig‘icha tasarrufimizda istifoda bo‘lsa, deya orzular qilaman. Ne ilojki,

“

AZALIY QADRIYATLAR TIKLANAYOTGAN ZAMONDA TILSHUNOS OLIMLARIMIZNING BU JONBOZLIKLARI, AYNIQSA, ZIYOLILARNI “QORA” XALQQA ERGASHISH EMAS, BALKI YO‘LBOSHCHI BO‘LISHGA CHORLASHLARI ADOLATLI NIDODIR.

Ulg‘aygan so‘zlar

So‘z bamisoli tirik jondek hayot kechirar ekan. Unda ham tug‘ilish, kamol topish, qarib zavolga yuz tutish bor ekan.

Umr davomida inson necha qayta o‘zgaradi. Bolalikda bir, yigilitkada o‘zga, ulug‘ yoshga yetganda yana boshqa qiyofa kasb etadi. Dunyo kezib ba‘zan o‘z yurtiga boshqa odam bo‘lib qaytadi. So‘zning ham o‘z qismati, tarjimaiy holi bo‘larkan. Goh uzoq-yaqin ellarda makon tutib, tamoman boshqa ma‘no olib yurtga qaytar ekan.

Tilimizda istak, xohishni anglatuvchi iroda so‘zi bor. Bir piyola suv ichishni iroda qildim, desak aslida xato bo‘lmaydi. Lekin biz shunday demaymiz. Chunki bu so‘z istak ma‘nosidan o‘sib, qalb qudratini, inson tabiatidagi mustahkamlik, qat‘iyatni anglatuvchi atamaga aylanibdi. Irodali inson endi xohish egasi emas, balki o‘z xohishini boshqara olgan, kerak bo‘lsa, ko‘ngilning hoyu-havaslariga qarshi tura oladigan insondir. So‘z asl ma‘nosidan uzoqlashmagan holda ulg‘ayib, bo‘yiga bo‘y, ko‘rkiga ko‘rk qo‘shilibdi.

Lekin shunday so‘zlar borki, vaqt ularni tanib bo‘lmas darajada o‘zgartirib yuborgan, asl ma‘nodan deyarli nishon qolmagan.

Yod emas emish kishini g‘urbatda kishi,

Shod emas emish ko‘ngulni mehnatda kishi.

Bu Mirzo Boburning faryodi. Mehnat so‘ziga e‘tibor bering. Aslida, azob-uqubati bildirgan bu so‘zga zamon tamoman ters mazmun bag‘ishladi, baxt-saodat omiliga, shon-sharaf ishiga aylantirdi, qonun bilan huquqiy maqom berdi. Mehnatkash endi azob tortuvchi emas, yuksak fazilat egasi bo‘lgan qadrlil inson.

Qaro ko‘zum, kulu mardumlug‘ emdi fan qilg‘il,

Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

Hazrat Navoiyning mashhuri olam bo‘lgan bu shohbaytidagi har uch o‘zak so‘z — mardum, fan, vatan bizning zamonga kelib ulg‘aygan, kamol topgan, asl ma‘no qobig‘larini yorib chiqib, yangi miqyosga ko‘tarilgan atamalardir.

Mardum — inson. Fan qilmoq — ayon qilmoq, namoyon etmoq, bildirmoq. Mardumning yana bir mazmuni ko‘zning gavhari. Baytning ma‘nosi — bilsangiz ham yana qaytaray — ey, qorako‘zim, kel, bir insoniylik ko‘rsatginu ko‘zim qorasi gavhar bo‘lib joylashgin. Qora ko‘z va ko‘z qorasi, mardumning ikki ma‘nosi, shakl va mazmunning go‘zal va olijanoblighi baytni she‘riyatning arshiga ko‘tarib qo‘ygan.

Pos — o‘zimizning so‘z deb xato aytmadim. Asli forsha yoki arabcha o‘zakka ega bo‘lgan, asrlar davomida tilimiz tarkibida yashab bizga xizmat qilayotgan so‘zlar ham albatta o‘z so‘zlarimizdir.

Xuddi shunday, rus, mojar, arab, tojik va boshqa tillarda xizmat qilayotgan o‘zbek so‘zlari ham hozirgi egalariiga buyursin.

Biz bir pas deb ishlatadigan pos — jaydari so‘zimizning jahon sahnida topgan yuksak martabasi kechagi chopqillab yurgan bo‘z bolaning askar bo‘lib, harbiy kiyimda viqor bilan qaytganiini eslatadi.

Demak, o‘zbekning bir pasi bir soat bo‘lar ekan. Gapimni bir pasda tugataman degan so‘zning ma‘nosini o‘zingiz tushunavering.

Bir pas necha daqiqa?

Bolalikdagi she‘riy mashqlarimning birida, shabboda, to‘xta bir pas deb yozgan ekanman. Devoriy gazeta muharriri, o‘zbek adabiy tilida bir pas degan so‘z yo‘q, bir nafas deyish kerak deb o‘zi qizil qalam bilan to‘g‘rilab qo‘ygan.

Ko‘p yillar o‘tib, Navoiyning “Layli va Majnun”ida shunday baytni ko‘rdim:
Bir pos chu tundin o‘tdi ul xayl,
Tushluq tushi qildi uyquq‘a mayl,

Lug‘atlarga qaradim. Pos — tunning sakkizdan biri deb sharhlanibdi. Demak, taxminan bir soatga teng tungi muddat — pos, bir soatlik tungi soqchi — posbon, ruscha chasovoy ma‘nosidagi atama bo‘lib chiqdi.

Ajabki, o‘z so‘zimiz bo‘lgan pos jahon kezib, yana o‘zimizga post shaklida, qo‘riqlanadigan joy, soqchining o‘mi hamda lavozim ma‘nolarini olib qaytibdi.

Erkin VOHIDOV,

O‘zbekiston xalq shoiri

YANGI O‘ZBEKISTON

Taqdimot

VATAN HIMOYASIGA SAFARBAR SHE‘RIYAT

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning “Mard askarga sovg‘a” ruknida nashr etilgan “Armiya va tarbiya” nomli yangi kitobi taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Sirojiddin Sayyid Yozuvchilar uyushmasi raisi, Oliy Majlis Senati a‘zosi... Bir so‘z bilan aytganda, xalqimiz sevgan, so‘zi kamolga yetgan shoir.

Shoirning millati bo‘lmaydi, ular butun insoniyatning farzandidir, deyishadi. Haq gap, o‘z xalqi, zamondoshlarining ko‘nglidan joy olgan shoirilarni dunyo ahli tan oladi. Ularning she‘rlari insoniyatning ma‘naviy mulkiga aylanadi.

Yuragida ilk bor she‘riyatga mehr paydo bo‘lib, havas bilan oq qog‘ozga ko‘nglini to‘kib, qalam qitirlayotgan bolakayning mashqlarini necha oylar, necha-necha yillar toblaydi, sinovlar sayqallaydi. Hayotning shafqatsiz va adolatli imtihonlaridan muttasil o‘tib borgan, qayta-qayta yozilgan, qayta-qayta o‘chirilgan qo‘lyozmalar orasidan yaraladi she‘r.

Bu uyum-uyum ma‘danlar ichidan oltin zarralarini topishdek gap. Tinimsiz mehnat, mashaqqatli mutolaa, qalbdagi mehrni odamlardan ayamaslik, yurtga fidoyilik evaziga yurakdan yombi oltinlar qazib olinadi.

Yoshlik, talabalik, matbuotdagi ilk chiqishlar. Ustozlar bilan suhbatlar, ijodkor do‘stlar bilan muhoiralar, yaxshi kitoblarni talashib, qizg‘anib o‘qishlar, eski kitob do‘konlaridan asl kitoblarni izlab topishlar...

Birinchi kitob hayajoni.

“Toshkent oqshomi”, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetalari, “Mushum”, “Sharq yulduzi” jurnallarida muxbirlikdan boshlab bo‘lim mudirligi, bosh muharrirlikkacha bo‘lgan vazifalarda

yarim asrlk imtihon, yarim asrlk beminnat xizmat, yarim asrlk ijodiy mehnatu zahmatlarning samarasi, achchiq va chuchuk danakli mevalarga o‘xshagan she‘rlar: g‘am va shodlik urug‘laridan ko‘kargan daraxtlarda pishgan mevalardek she‘rlar. O‘quvchi xayolini osmonlarga parvoz qildirishga, yuraklarni qushdek potirlab uchishga ruhlandıruvchi qanotli so‘zlar.

Kitob mundariyasi 1974-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan yarim asrlk davrni qamrab oladi. Shoirning yarim asrlk ijodiy hayoti Vatanning ham yarim asrlk tarixidan, xalqimizning yarim asrlk turmushidan nazmiy hikoya qilsa, ne tong! Tarix oldida uncha ko‘p vaqt sanamaydigan shu ellik yilda, shu yarim asrda mamlakatimizda asrlarga tatiydigan, xalqimiz hayotini o‘zgartirib yuborgan voqealar ro‘y berdi.

“Yarim asr devoni” sahifalarida hamisha vaqt qo‘ng‘irog‘idek bedor jaranglab turgan so‘z — Vatan, muallif dilidan izhor etilib turgan sevgi — Vatan, muhabbat — Vatan, mehr — Vatan.

Ustoz “Topgan toj-taxtim mening, onajonim she‘riyat” deganidek, shoir “Yarim asr devoni”dan keyin topgan nazmiy gultoji “Armiya va tarbiya” kitobidir.

Yillar davomida “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” deya bong urib, ezgu g‘oyalarni targ‘ib qilib kelgan shoir nazm bog‘ining gullari shirasidan lirika bolarilari yig‘ib olgan bol “Armiya va tarbiya” kitobidir.

Bugun nafaqat Vatan himoyasida bedor turgan harbiy xizmatchilar, balki butun xalq, butun millat yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi uchun ogoh yashamog‘i zarur. Ayniqsa, yoshlarimizning vatanparvarlik tuyg‘usi har qachongidan ham shovullagan daryo kabi uyg‘oq bo‘lmog‘i kerak.

Barchamizning ongu shuurimizda, ko‘nglimizda, so‘zimizda va faoliyatimizda “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” degan ezgu g‘oya chinakam amaliyotga aylanmog‘i va hayotimizga tatbiq etilmog‘i zamon va davr talabidir.

Ta‘kid, takror, mantiqiy urg‘ular, ketma-ket, saf-saf bo‘lib Vatan himoyasi uchun qadam bosayotgan askarlardek shiddatli, shijoatli, haybatli:

Vatan — jon va tandadir, jon Vatan — jon va tandir, Vatanparvar insonlar jon chekib, jon tikkandir.

Ajratilgan bo‘g‘inlar, bo‘lingan so‘zlar komandir buyrug‘idan so‘ng bo‘linib-bo‘linib ketib, jangovar pozitsiyalarni egallagan askarlardek harakatchan, sergak va ogoh. Qurollangan sheryurak jangchilardek hamlaga tayyor.

Tovushlar radioaloqa apparatidan yangragan ovozlardek aniq, keskin va qat‘iy.

Toki xavfu xatar bor, shudir temir tarbiya, Har birimiz — posbonimiz, har birimiz — armiya.

So‘zlarning moddiylashgan ko‘rinishi, tasavvurdagi suratida milliy armiya va uning jangovar salohiyati namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda ustoz Abdulla Oripovning:

Hirot darvozasin bir qanotida She‘riy lashkarini tuzgan Alisher, — degan satrlari ko‘z o‘ngimizga keladi. Ona yurt, ota makon, men ham bir askaringman, Uyg‘oq qalamim bilan xizmatkor navkarimgan.

Shoir qalb amri bilan Vatanimiz tinchligi, davlatimiz mustaqilligini ko‘z qorachig‘idek asrash yo‘lida har bir ijodkor, har bir shoir askardek ma‘naviyat frontiga safarbar bo‘lishi zarur degan da‘vati barchamizga e‘lon qiladi. Badiiy so‘zlar quroldek o‘tkir, tezkor bo‘lsin, nishonga aniq tegsin.

Bu qanday dilbar diyor, dil diyor, dildor diyor, Askarlari ham bedor, shoirlari ham bedor.

“Armiya va tarbiya” kitobi bugunning ma‘naviy sabog‘i, shu bilan qalq, qudratli ruhiy qurolidir.

Shoir tilidan yangragan she‘riy da‘vatlar yuraklardan joy oladi, qalblarni zavqlantiradi, o‘quvchilarni hayajonlantiradi va Vatan uchun oyoqqa qalqib, olg‘a qadam bosishga ruhiy kuch beradi.

Yangi O‘zbekistonning milliy armiyasida, Shoirlar ham safdoshdir ta‘lim-tarbiyasida. Mening ham har bir she‘rim — hayotu mamotimdir, Oliy Bosh Qo‘mondonga ichgan qasamyodimdir.

Taqdimotda O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining buyrug‘iga asosan Sirojiddin Sayyid “Yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi faol ishtiroki uchun” ko‘krak nishoni bilan mukofotlandi.

Rustam MUSURMON,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

“XALQ UCHUN!”

ARMIYA VA TARBIIYA

TAQDIMOT

ERKIN VOHIDOV

“MARD ASKARGA SOVG‘A”

ERKIN VOHIDOV

“MARD ASKARGA SOVG‘A”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Nashr indeks — 236. Buyurtma — G-846.

34930 nusxada bosildi.

Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.

Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov

Musahhih: Malohat Mingboyeva

Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.